



Shaxsda gender madaniyatni rivojlantirishda jahon tajribalarining qiyosiy tahlili

Aripov Shokirjon Olimovich –
Farg'ona davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sh_aripov89@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-7703-0027>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tajribalari asosida shaxsda gender madaniyatni rivojlantirishning qiyosiy tahlili, gender stereotip va rollar o'zgaruvchan xarakterga egaligi takidlab utilgan. Genderning ijtimoiy konstruksiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida vujudga keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gender stereotip va rollar o'zgaruvchan xarakterga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender rollar turli tarixiy sharoitlarda turli madaniyatlar ta'siri ostida o'zgaradi. Shu jumladan, gibril xarakterdagi ommaviy madaniyat ham shaxsning ijtimoiy rollarini o'zgartirishga muvaffaq bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: gender madaniyat, gender stereotiplar, gender rollar, madaniy immunitet, differensial yondashuv, jinsga xos nomutanosiblik, genderni ijtimoiy konstruksiyalash.

Сравнительный анализ мирового опыта в развитии гендерной культуры личности.

Аннотация. В данной статье на основе мирового опыта проводится сравнительный анализ развития гендерной культуры у личности, гендерные стереотипы и роли имеют вариативный характер. Социальная конструкция пола возникает в процессе социализации личности. Следует отметить, что гендерные

стереотипы и роли меняются. Исследования показывают, что гендерные роли меняются под влиянием разных культур в разных исторических контекстах. Кроме того, массовая культура гибридного характера способна изменить и социальные роли человека.

Ключевые слова: *гендерная культура, гендерные стереотипы, гендерные роли, культурный иммунитет, дифференцированный подход, гендерное неравенство, социальная конструкция гендера.*

Comparative analysis of global experiences in developing gender culture in an individual.

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the development of gender culture in an individual based on world experience, emphasizing the changing nature of gender stereotypes and roles. The social construction of gender arises in the process of socialization of an individual. It should be noted that gender stereotypes and roles are changing in nature. Research shows that gender roles change under the influence of different cultures in different historical conditions. In particular, mass culture of a hybrid nature is also able to change the social roles of an individual.*

Keywords: *gender culture, gender stereotypes, gender roles, cultural immunity, differential approach, gender inequality, social construction of gender.*

KIRISH

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish, psixologlar va ota-onalar hamkorlikda o'smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, o'smirlarning ijobiy harakat traektoriyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o'smir yoshdagi o'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual va differensial yondashuvlar asosida ularning madaniy immunitetlarini shakllantirish, sinf va sinfdan tashqari tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni isloh qilish, bu borada pedagoglarning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Gender yondashuv asosida o'smirlarda madaniy immunitetni tarkib toptirishga oid tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ta'lim muassasalari, jumladan, Princeton university, Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn (Germaniya), CENTRES OF GENDER EXCELLENC (Shvesariya); Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya)da olib borilmoqda.

"Ommaviy madaniyat" va uning ta'sirchan mexanizmlarini aniqlash ustida jahonda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan: ma'naviy-axloqiy bilimlarni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo'llashni optimallashtiradigan pedagogik-psixologik treninglar tizimi kompetentlik omillarini takomillashtirish asosida yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); shaxsda "ommaviy madaniyat"ga nisbatan ob'ektiv nuqtai nazarni tarkib toptirishning didaktik ichki va tashqi resurslarni aniqlash asosida yaratilgan (Belfield pedagogical university); o'quvchi-yoshlarda

ijtimoiy-hissiy madaniyatni tarkib toptirishning pedagogik ta'lim mazmuni strategik loyihalash asosida ishlab chiqilgan (Pohang University of Science and Technology – Janubiy Koreya); “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari axborotlarni interpretatsiya qila olish asosida ishlab chiqilgan (Chonbuk National University – Janubiy Koreya); “ommaviy madaniyat”ning shaxs ma'naviyatini shakllanishidagi ta'siri neyrolingvistik dasturlashtirishni diagnostik monitoringi asosida aniqlangan (Miyagi pedagogika universiteti); “ommaviy madaniyat”ning mafkura va iqtisodiyotdagi ta'sir mexanizmlari kontekstli yondashuvdan foydalanish asosida ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi).

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lim tizimida “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini tashxislash va korreksiyalash; “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish; “ommaviy madaniyat”ning mafkura va iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlarini aniqlash; “ommaviy madaniyat”ni shaxs ongini boshqarish, uning qiziqishlari va manfaatlarini manipulyatsiya qilishning yangi tizimi sifatida talqin qilish jarayonni modellashtirish va boshqalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat tarixidan ma'lumki, patriarxal jamiyatda erkaklarning mavqei kengayib, ularga xos madaniyat va madaniy stereotiplar shakllangan. Antik davrlarda gender masalalariga ilk bor Aristotel va Platon murojaat qilgan. Platon o'g'il va qiz bolalarning birgalikda ta'lim olishlarini yoqlab chiqqan. Aristotel esa o'g'il va qiz bolalarga alohida-alohida ta'lim berish zarurligi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligini ta'kidlagan. O'rta asrlar Islom madaniyatida o'g'il bolalarga kuch-qudrat egasi, mardlik, jasorat timsoli, Vatanni mudofaa qiluvchi shaxs sifatida qaralgan bo'lsa qizlarga nozik xilqat, bo'lajak ona, aql-idrok sohibasi sifatida yondashilgan. Ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish g'oyasi targ'ib qilinib, alohida-alohida ta'lim berish tajribasi qo'llanilgan. Shuning uchun ham o'tmishda ayollardan ko'plab aql-idrok sohiblari etishib chiqqan. Ular ayol, ona, uy bekasi kabi rollarni bajarish bilan bir qatorda hunarmandchilikni rivojlantirish, davlat ishlarida maslaxatchi sifatida ishtirok etish, she'riyat va ijodda o'zlarini namoyon qilishga muvaffaq bo'lganlar. Markaziy Osiyo ayollari davlat ishlarida faol ishtirok etganlar. O'zlarining yuksak aql-idroklari bilan san'at asarlari yaratganlar. Masalan, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim kabilar shular jumlasidan. Xonliklar davrida ayollarning huquqlari cheklangan. Aholining kambag'al qatlamiga etarlicha savod o'rgatilmagan. Ular itoatda saqlanib, xohish-irodalari aksariyat hollarda hisobga olinmagan. Bu davrga kelib qizlar asosan uyda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan boshlab qizlar dastlab xonadonlardagi maktablarda, keyinchalik esa yangi tuzem maktablarida ta'lim ola boshlaganlar. Sobiq sovet xokimiyati yillarida kommunistik g'oya namoyondalari tomonidan ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi e'lon qilinib, ular o'zlariga xos bo'lmagan rollarni bajarishga xam undalgan. Ularga bu davrda maktablarda politexnik ta'lim berilib, traktorlar, ko'tarma kranlarni boshqarish kabilarga ham safarbar etilganlar. Qizlar va ayollar o'z jismlariga va fiziologik konstitutsiyasiga mos bo'lmagan og'ir ishlarni ham bajarganlar. Shu bilan bir qatorda Sobiq sovet xokimiyati yillarida qizlar orasidagi savodsizlik tugatilib, ular to'liq umumiy o'rta ta'lim bilan qamrab olinganlar. Oliy ta'lim muassasalarida esa ular yigitlar bilan teng bilim olishga muvaffaq bo'lganlar. Bu davrda xotin-qizlar orasidan ko'plab ilmfan va san'at namoyondalari, rahbar xodimlar etishib chiqqan.

G'arbda ham XVIII-XIX asrlarda qiz bolalarga ta'lim berish borasidagi fikrlar o'zgarib, yangicha munosabat vujudga kelgan. Jumladan, Jan Jak Russo[1] o'g'il va qiz bolalarga bir xil sharoitlarda ta'lim berish g'oyasini yoqlab, o'g'il bolalarda mardlik, to'g'riso'zlik, qat'iyatlilik, vijdonlilik sifatleri, qizlarda esa uyatchanlik, nazokatlilik, ziyraklilik sifatleri tarkib toptirilishi lozim, – deb hisoblaydi. Djon Lokk[2] esa o'quvchilarni uy sharoitida maxsus tayyorlangan tarbiyachi nazorati ostida o'qitish lozimligini ta'kidlaydi. U o'g'il bolalarda xaqiqiy djentelmenlik sifatlerini shakllantirish uchun xorijiy tillar, geografiya, matematika, falsafa kabi o'quv fanlarini o'qitish, qizlarga esa raqs, musiqa, san'atdan saboq berish zarurligini uqtiradi.

K.Gelvesiy[3] esa ta'lim olishda o'g'il va qiz bolalarning teng huquqli ekanliklarini e'tirof etadi. Yan Amos Komenskiy o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish tarafdori bo'lib, ularga alohida-alohida ta'lim berish uchun xech qanday asos mavjud emasligini ta'kidlagan. I.G.Pestalossi ham turli jinsga mansub o'quvchilarni alohida-alohida o'qitish g'oyasini tanqid qilib, ularga birgalikda ta'lim berishni yoqlagan.

A.Avloniy[4] qizlar ta'limi bo'yicha ijobiy munosabatda bo'lib, 1920 yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o'lka bilim yurtida, so'ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qilgan [4; 8-9-b.]. Ko'plab pedagoglar, psixologlar, sosiologlarning ta'kidlashlaricha, o'g'il va qiz bolalarda jinsga xos muayyan xatti-harakatlarning shakllanishi ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Jumladan, globallashuv, jamiyatda gibril madaniyatning tobora keng ko'lam kasb etayotganligi o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlaridagi jinsga xos nomutanosiblikning vujudga kelishiga asos bo'lmoqda. Natijada genderni ijtimoiy konstruksiyalash tushunchasi vujudga keldi.

Gender tushunchasi Evropada vujudga kelgan feministik ayollar harakati bilan bog'liq tarzda shakllangan. Mazkur ayollar harakati vujudga kelgach, uni tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning muammolari ham ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotlarda o'g'il va qiz bolalarga nisbatan mutaxassislarning nuqtai nazarlari o'z ifodasini topgan. Ushbu izlanishlarda nafaqat gender tenglik tushunchasining vujudga kelganligi, balki ular orasidagi jinsga xos mutanosiblikning shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Bunda nafaqat erkaklarning tajribasi va qiziqishlari, balki ular orasidagi teng huquqlilik nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi shaxsda gender madaniyatini shakllantirish jarayonida jahon tajribalarini o'rganish, ularni solishtirish va O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot kvalitatif yondashuv asosida olib borildi va qiyosiy-pedagogik, tizimli-analitik hamda empirik metodlar uyg'un qo'llandi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida UNESCO, UN Women, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilg'or davlatlarning gender ta'limi modellarini aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv dasturlari hamda O'zbekistonning gender siyosatiga oid rasmiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, gender madaniyatini rivojlantirish bo'yicha mahalliy pedagoglar, psixologlar va mutaxassislar bilan ekspert intervyulari o'tkazildi, talaba-yoshlar o'rtasida qisqa anketalar yakunlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, struktur tahlil, kontent tahlil, SWOT tahlil, ekspert baholash, kuzatuv va anketa usullaridan foydalanildi. Olingan barcha ma'lumotlar tematik kodlash orqali qayta ishlanib, turli davlatlar tajribasi o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlash maqsadida tizimli taqqoslash amalga oshirildi. Tahlil asosida gender madaniyatini baholash uchun asosiy mezonlar tanlandi: ta'lim tizimidagi gender siyosat, o'quv dasturlaridagi gender mazmuni, o'qituvchilarning gender sezgirligi, jamiyat va oilaning genderga munosabati, yoshlarning stereotiplarga moyilligi, amaldagi gender loyihalari samaradorligi.

Tadqiqot etik talablarga rioya qilingan holda olib borildi: ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi, intervyu va anketalar faqat ularning roziligi bilan o'tkazildi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo'lib, ular orasida xalqaro davlatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarning to'liq bo'lmasligi, ekspertlar doirasining cheklanganligi va madaniy muhitning o'ziga xosligi ham bor. Biroq qo'llanilgan triangulyatsiya usuli (manbalar + ekspert fikrlari + empirik kuzatuv) tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gendering ijtimoiy konstruksiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanishi haqidagi ilmiy qarashlar zamonaviy sotsiologiya, antropologiya va psixologiyada keng e'tirof etilgan. Gender – biologik farqlardan tashqari, jamiyat tomonidan ijtimoiy jihatdan belgilab beriladigan rollar, xulq me'yorlari va kutishlar majmuidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari va rollar doimiy emas, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga qarab o'zgaruvchan xarakterga ega. Shu bois gender madaniyatini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish shaxsning genderni oid qarashlaridagi dinamikani tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, turli tarixiy davrlarda, ayniqsa, texnologik taraqqiyot, davlatning gender siyosati, ta'lim tizimidagi islohotlar va ommaviy madaniyatning ta'siri ostida gender rollar qayta ko'rib chiqilgan. Globallashuv jarayoni bilan vujudga kelgan gibril madaniyat ya'ni mahalliy va global qadriyatlarining sintezi yosh avlodning gender identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet, kino industriyasi va ijtimoiy tarmoqlar gender rollarning shakllanishi va transformatsiya jarayonida asosiy ijtimoiy institut sifatida faol ishtirok etmoqda.

Antropolog Margaret Midning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'g'il va qiz bolalarning rollari jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy ehtiyojlari va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Midning eng muhim xulosalaridan biri jinsiy rollarning tug'ma emas, balki ijtimoiy tajriba natijasida shakllanishi haqidagi ilmiy asosdir. Uning fikricha, har bir jamiyatda o'g'il va qiz bolaga yuklanadigan vazifalar, xatti-harakat normalari va kutishlar ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida tezkor yoki sekinlashgan tarzda o'zgaradi. Bu yondashuv genderni biologik emas, balki konstruktiv fenomen sifatida talqin qilishga imkon bergan.

Xuddi shuningdek, N.Smelzer va E.Giddenslarning tadqiqotlari genderning ijtimoiy konstruksiyasi nazariyasini yanada boyitdi. Smelzer jamiyatdagi ijtimoiy institutlar oila, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va mehnat bozorining gender rollarni belgilashdagi asosiy mexanizmlarini aniq ko'rsatib bergan. Uning ta'kidlashicha, har bir jamiyatda jinsga nisbatan belgilangan kutishlar shaxsning o'zini tutish strategiyasini shakllantiradi.

Umuman olganda, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, gender madaniyatni rivojlantirish shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy rollarini anglash va jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Gender rollarning o'zgaruvchanligi, ularning ijtimoiy konstrukt sifatida talqin qilinishi va ta'lim jarayoniga integratsiya etilishi gender tenglik siyosatini kafolatli yeadigan eng muhim mexanizmlardan biridir. Shu sabab, O'zbekiston ta'lim tizimida gender madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni joriy qilish barqaror va zamonaviy jamiyat qurishning ajralmas shartidir.

XULOSA

Har bir jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar shaxsning gender rollarini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Smelzerning ta'kidlashicha, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi rollari muntazam o'zgarib turadi va ushbu tendensiya saqlanib turadi. Shu bilan bir qatorda mutaxassis gender rollarni faollashtirish usullari va yo'llarini ham ko'rsatib o'tadi.

Shuning uchun ham genderga xos madaniy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida o'quvchilarda ijtimoiy voqelik haqida aniq tasavvur hosil qilish talab qilinadi. Gender rollar jamiyatdagi muammolar bilan bog'liq holda shakllanadi va o'zaro muvofiqlashadi. Agar jamiyatdagi tizim o'zgarsa, gender bajaradigan rollarda ham o'zgarishlar vujudga keladi. Rollardagi nomutanosibliklar ommaviy madaniyat ta'sirida vujudga kelayotgan bo'lib, xotin-qizlar va erkaklarning farzand tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatni to'g'ri taqsimlamaganliklari bilan ham izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. V.M.Karimova Shaxs psixologiyasi. Toshkent:, O'zMU nashriyoti, –2020.
2. N.Jo'rayev Gender tenglikning ijtimoiy-psixologik asoslari. Toshkent.: Fan, –2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni. – 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Gender tenglik siyosati konsepsiyasi. – Toshkent:, –2021.
5. G.G'ofurova, M.Karimova, Gender madaniyati va ta'lim. Toshkent: Yangi asr avlodi, –2021.
6. M.Abdullayeva, Oila sotsiologiyasi va gender masalalari. – Toshkent: TDYU, –2022.
7. J.Butler, Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, –2006.
8. R.Connell, Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. Stanford: Stanford University Press.